

# "O'zkimyosanoat" Ajda davlat tili nufuzini oshirish borasidagi ishlar e'tirof etildi

// 05.06.2026

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/20260605>

Joriy yilning 3-4-iyun kunlari Namangan davlat universitetida "Global integratsiya sharoitida turkiy tillar taraqqiyoti: muammo va vazifalar" mavzusida III xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tdi.



Mazkur nufuzli anjumanda mamlakatimizning turli hududlari hamda 12 ta xorijiy davlatdan 100 ga yaqin tilshunos olimlar va mutaxassislar ishtirok etdi.



Konferensiya davomida davlat tilining jamiyat hayotidagi o'rnini mustahkamlash, uning sofligini saqlash, boyitish, aholining nutq madaniyatini yuksaltirish hamda davlat tilida ish yuritish samaradorligini oshirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar muhokama qilindi.



Tadbirda "O'zkimyosanoat" AJ va uning tizim tashkilotlarida davlat tili imkoniyatlaridan to'liq va to'g'ri foydalanish, rasmiy hujjatlar yuritilishini takomillashtirish, davlat tili madaniyatini yuksaltirish yo'nalishida olib borilayotgan ishlar alohida e'tirof etildi.